

VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHDA "BAHOR"
TASVIRIDAN FOYDALANISH USULLARI

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna

*Oriental Univeriseti**filologiya fanlari nomzodi, dotsent*feruzaabdujabbarova@yandex.com

Muxammadjonova Nozima Isroiljon qizi

Oriental Univeriseti 5-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishda "bahor" tasvirining tarbiyaviy-pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Unda bahor faslining tabiat uyg'onishi, yangilanish va hayotbaxshlik ramzi sifatida o'quvchilarning hissiy-estetik idrokiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, bahor manzaralaridan foydalanish orqali o'quvchilarda Vatan tabiatiga mehr, milliy qadriyatlarni anglash va estetik didni rivojlantirishga qaratilgan metodik usullar bayon etiladi. Maqolada kuzatish, suhbat, ijodiy faoliyat va fanlararo integratsiya asosida olib boriladigan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari tarbiya va tasviriy san'at mashg'ulotlarida Vatanga muhabbat tuyg'usini kuchaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Vatanga muhabbat, bahor tasviri, estetik tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, tasviriy san'at, hissiy-idrok, ijodiy faoliyat, pedagogik usullar.*

Vatanga muhabbat inson qalbida eng nozik va teran tuyg'ulardan biri bo'lib, u tabiat manzaralari, milliy an'analar va estetik tasavvurlar orqali shakllanadi. Shu jihatdan bahor fasli tasviri yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda samarali badiiy-pedagogik vosita hisoblanadi. Bahor — yangilanish, hayot va umid timsoli bo'lib, u inson ongida Vatan bilan bog'liq iliq va musbat kechinmalarni uyg'otadi.

Bahor manzaralari orqali Vatanga muhabbat tuyg'usini rivojlantirish, avvalo, tabiat va Vatan tushunchalarining uyg'unligiga asoslanadi. O'z yurtining bahordagi go'zalligi — ochilayotgan gullar, yam-yashil dalalar, uyg'onayotgan tabiat manzaralari o'quvchilarda Vatanni sevish, uni asrab-avaylash hissini kuchaytiradi. Bu jarayonda tabiatni kuzatish, tasvirlash va his etish orqali shaxsda estetik did va ekologik madaniyat ham shakllanadi.

Ta'lim jarayonida adabiy asarlar, she'riy parchalar, tasviriy san'at namunalari va xalq og'zaki ijodi orqali bahor obrazini ochib berish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, bahor mavzusidagi she'r va hikoyalarni tahlil qilish, tabiat manzaralarini tasvirlashga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning Vatanga bo'lgan munosabatini hissiy jihatdan boyitadi. Ayniqsa, Navro'z bayrami bilan bog'liq urf-odat va marosimlarni o'rganish milliy qadriyatlarga sadoqatni mustahkamlaydi (Karimova, 2020).

Bahor tasviri orqali Vatanga muhabbatni rivojlantirishda tasviriy san'at va teatr pedagogikasi elementlaridan foydalanish ham muhimdir. Bahor manzaralarini chizish, sahnalashtirish yoki badiiy ifodalash jarayonida o'quvchilar o'z Vatanining go'zalligini anglaydi va uni qalban his etadi. Bu esa vatanparvarlik tuyg'usining tabiiy va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. (Saidov, 2019).

Tarbiya fani mashg'ulotlarida **“Vatanga muhabbat tuygʻusini”** oʻrganish jarayonida taʼlim beruvchi ham taʼlim oluvchi ham oʻzaro hamkorlik asosida faol ishtirok etadi.

Bahor tasviri berilgan matnlar orqali Tarbiya fanini oʻqitishda eng samarali sanalgan pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlar, ular yordamida mavzuni oʻqitish usullari xususida soʻz yuritamiz:

Bahor tasviri berilgan matnlar tahlili orqali Vatanga muhabbat tuygʻusini rivojlantirishda quyicha pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin.

1.Mavzu doirasida ilmiy, badiiy va ijodiy maʼlumotni yetkazish va oʻquvchilarning oʻzlashtirish jarayonida olingan maʼlumotlarni tahliliy oʻrganishi uchun quyidagi metodlarni tavsiya qilish mumkin:

a) Ilmiy yoki badiiy adabiyotlardan **“Bahor”** fasliga doir maʼlumotlarni qiyosiy oʻrganish hamda ularni tahliliy konspektini yaratish, har bir ijodkorning

oʻziga xos oʻxshatishlarini koʻrsatish;

b) Maʼlumotlar ombori (vikipediya)ni yaratish. Bunda oʻquvchilar oʻzlari yozgan havolali konspektlari asosida eng qisqa maʼlumotlardan mavzuga doir, masalan, **“Vatan”** mavzusi doirasida maʼlumotlarni toʻplaydi.

v) **“Tushunchalar tahlili”** metodi orqali olingan nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Bunda jadval asosida tushunchalar berib boriladi, izox va taʼrif beriladi. Ilmiy adabiyotlardagi maʼlumotlar qiyoslanishi ham mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi orqali oʻquvchilar mavzuga doir tayanch tushunchalarga izoh beradi. Oʻqituvchingizdan bilib olgan qoʻshimcha maʼlumotlaringizni 3- ustunga yozib chiqing.

1	2	3
Tushunchalar	Izohlar	Qoʻshimcha maʼlumotlar
Vatan		
Burch		
Muhabbat		
Ona-yurt		
Oila		
Vatanparvar		

2.Matn bilan ishlash bosqichida oʻquvchilarni kichik guruhlariga ajratib olish maqsadga muvofiq boʻladi. Bunda har bir guruhcha oʻz matnida uchragan bahor tasvirini ajratadi, izoh beradi. Bu jarayonning murakkab oʻz oʻrnida qiziqarli jihati sifatida shuni koʻrsatish mumkinki, matndagi tasvirlar izohlanadi. Matndagi taʼsirchanlik, badiiy estetika orqali Vatan tasviri yaratiladi. Bunda tahlil va tushunish, xulosalash jarayoni amalga oshiriladi.

Matn bilan ishlash jarayonini tushuntirgach, oʻquvchilar eʼtiboriga **“Bahor”** mavzusiga oid turli janrdagi matnlarni tavsiya qilamiz:

Mazkur bosqichda turli janrdagi bahor mavzusiga oid matnlardan (Furqat, 2018; Abdulla Oripov, 2016; Cho'lpon, 2019; Hamid Olimjon, 2017) foydalanish o'quvchilarning hissiy-tafakkurini boyitadi.

a) Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.
Subhidam tushub shabnam, bo'ldi sabzalar hurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abro'-naysonlar.
Nastaron yuvib yuzni, yosuman tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni, intizor, yoronlar.
Qumrilar qilib kuk-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarvi gul uza doim tortar ohu afg'onlar.
Tortar ohu afg'onlar.
Kechdilar vafo ahli qolmayin tutub savsan,
Kiydi ko'k, qilib sunbul zulfini parishonlar.
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar

(Furqat)

b) Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog'ingdan rang olgan dedim -
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

(Abdulla Oripov)

v) Tollarning ko'm- ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi.. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarinng uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq na'shasini beradi. (Cho'lpon)

Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda
Shunda ko'rdi ko'zim bahorni,
Shunda qalbim tanidi yorni.
Qushlar sayrar jonimga payvast,
Men sevgining bo'yi bilan mast.
Kuni bilan dalada qoldim,
Lolazorlar ichra yo'qoldim.
Quchoq-quchoq gullar terganim
Va keltirib senga berganim
Kechagiday hamon esimda,
Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda oting,
Shundan beri dilimda oting.
Eng gullagan yoshlik chog'imda,
Sen ochilding ko'ngil bog'imda.
(*Hamid Olimjon*)

Vuqoridagi topshiriq orqali o'quvchilar badiiy matnda tabiat tasviri, matn tahlili orqali o'zlari yashayotgan makonni go'zalligini his qiladilar, bundan hayajonlanadilar hamda vatanni sevmog'ni o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, bahor tasviri yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy g'urur va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishda muhim estetik-tarbiyaviy omil hisoblanadi. Bahor orqali tabiat, madaniyat va Vatan tushunchalarini uzviy bog'lash ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarda barqaror vatanparvarlik qarashlarini qaror toptiradi (UNESCO, 2017; Karimova, 2020).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Oripov. (2016). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
2. Cho'lpon. (2019). *Asarlar to'plami*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Furqat. (2018). *She'rlar va publitsistik asarlar*. Toshkent: Mumtoz so'z.
4. Hamid Olimjon. (2017). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Sharq.
5. Karimova, S. (2020). Tarbiya fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. *Pedagogik ta'lim*, 4(2), 45–52.
6. Qodirova, D. (2021). Estetik tarbiya va badiiy tafakkur rivoji. *Ta'lim va tarbiya*, 3(1), 33–39.
7. Saidov, A. (2019). Vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
8. UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO Publishing.